

ASTRAGALUS O'SIMLIKLARI TARKIBIDAGI KIMYOVIY BIRIKMALAR

A.A. Janibekov
Alfraganus University

Yer yuzida dorivor o'simliklarning 10-12 ming turi mavjud bo'lib, 1000 dan ortiq o'simlik turlarining kimyoviy farmakologik va dorivorlik xossalari tekshirilgan. O'zbekistonda dorivor o'simliklarning 577 turi mavjud bo'lib, jumladan hozirgi vaqtda 250 turi ilmiy tabobatda ishlatilmoqda.

Qadim zamonlardan e'tiboran insonlar yovvoyi o'simliklardan turli kassalliklarni davolashda foydalanib kelganlar. Yil sayin dorivor o'simliklar mahsulotiga ehtiyoj o'sib bormoqda.

Astragal dukkadoshlar oilasiga mansub bir yoki ko'p yillik o't hamda butalardir. Tabobatda Astragalus pseudanthylloides, Astragalus falcatus va Astragalus dasyanthus turlari keng qo'llanib kelinmoqda. Tarkibida triterpen glikozidlar, flavonoidlar va boshqa moddalar bor.

Ko'pchilik triterpen glikozidlari muhim xususiyatlarga, kardiotonik, gipoxolesterenimik, antiblastomlik, kontratseptik, sedativ, gipotenziv, diuretik, shamollashga qarshi, immunostimulyatorlik, interferon induktorlik kabi faollikka egadirlar.

Astragal turkumi o'simliklari xar ikki yarim sharda tarqalgan bo'lib, 900 dan ortiq turi Rossiyada, 300 dan ortiq turlari O'rta osiyoda qayd etilgan, jumladan 11 tasi qizil kitobga kiritilgan.

Ma'lumki, sikloartan katoridagi triterpen metilsteroidlari o'simliklar tomonidan sintez qilinadi. Astragalus turkumi o'simliklari asosan sikloartan triterpenoidlarining manbai bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqotlar natijasida, Astragalus turkimining A.kuhitangi o'simliklaridan ajratib olingan Astragalozid VII, ikki fazali ijobiy introp ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. A.sieversianus ajratib olingan Siklosiversiozid A kalamushlar miokardining metabolik jarayonida ijobiy biologik ta'sir ko'rsatishi ma'lum bo'ldi. Hozirgi vaqtda Siklosiversiozid A A.sieversianus o'simligining metanolli ekstraktidan ajratib olindi. Ushbu glikozid avval A.babatagi, A.pterocephalus, A.lastiostula o'simliklaridan ajratib olingan.